



**ESHITISHDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI
RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi
Xomidova Gulsora Xojiakbar qizi*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233796>

Annotasiya. Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirish jarayoni, ularning psixologik xususiyatlari va samarali pedagogik metodlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullar yordamida qanday natijalarga erishish mumkinligi ham yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Eshitish buzilishi, nutq rivojlanishi, surdopedagogika, logopediya, maxsus ta'lim, nutqiy nuqsonlar, koxlear implant, eshitish apparati, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, psixologik yondashuv, imo-ishora, og'zaki nutq, yozma nutq, fonema, artikulyatsion nafas, ovoz apparati.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish va imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash borasida qator qarorlar qabul qilingan. Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun, "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi", hamda "Maxsus pedagogika va logopediya xizmatlarini takomillashtirish dasturi" bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning so'z boyligi, grammatik to'g'ri tuzilgan gaplardan foydalanish qobiliyati, talaffuzi va og'zaki muloqot ko'nikmalari eshituvchi tengdoshlariga qaraganda ortda qolishi mumkin. Shu sababli, ushbu bolalar bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik ishlar alohida metodik yondashuvni talab qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish muammolari I.M. Solovyova, F.F. Rau, N.I. Shif, S.A. Zikov, T.V. Rozonova, N.G. Morozov, R.M. Boskislilar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Og'zaki nutq inson jamiyatida ilk nutq shakli si-fatida namoyon bo'lgan. Dastlabki so'zlar tovush komplekslar shaklida bo'lib, tarixiy rivojlanish davrida ma'lum tushunchalar sifatida aniqlanib, mustahkamlanib borgan. Lekin dastlab imo-ishora nutqi mavjud bo'lgan degan fikr ham mavjud. Bu ma'lumotga ko'ra, og'zaki nutq keyinroq paydo bo'lgan. Imo-ishora va mimikalar orqali o'z fikrini ifodalashda tovush taqlid so'zlarni ham qo'llaganlar. Psixologik nuqtayi nazardan og'zaki nutq sodda sanaladi. Uni faoliyatga kirishish vositasi tovush fone-madir. Yozma nutqning fonemaga kirishish vositasi grafik belgi harfidir. Og'zaki nutqni idrok etish eshituv analizatori asosida, yozma nutqni idrok etish ko'ruv analizatori asosida amalga osha-di. Ularning ifoda vositalari ham turlichadir. Og'zaki nutqda bu mimika, imo-ishora, urg'u, yozma nutqda bu uslub, so'zlarni alohida tanlash usullari hisoblanadi. Og'zaki nutq, yozma nutq ham monologik va dialogik shaklda bo'ladi. Dialogik nutq psi-xologik nuqtayi nazardan murakkab savol-javob tarzida bo'ladi va auditoriyaning tayyorgarligini hisobga olishini talab qiladi. Monologik nutq yengilroq bo'ladi. Uning tuzilishiga, u davom etayotgan sharoit va muhit yordam beradi. Bolada og'zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordami-da bola atrofdagilar og'zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarda eshituvchilar tovushlarning to'g'ri talaffuzini, lug'at boyligi va gap grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Kar bola bu yo'l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshit-maydi. Agar eshituvchi bola bog'chaga, maktabga shakllangan nutq bilan borsa, kar bola og'zaki nutqi mavjud bo'lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Bu-ning uchun kar bolaning artikulyatsion nafas olish va ovoz ap-paratini tayyorlash kerak. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususi-yatlari bilan farq qiladi. Maxsus mashqlar davomida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ular-ning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko'p miqdordagi kar-larda ovoz bo'g'iq, modullashmagan bo'ladi. Maxsus



mashqlar jarayonida o'qituvchi kar o'quvchi ovozi ovozini eshituvchi bola ovozi-ga yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham ke-rakli natijalarga olib kelmaydi. Kar bola nutqi, ovozi butun ha-yoti davomida o'ziga xos ottenkaga ega bo'ladi. Kar o'quvchilarni og'zaki nutqqa o'rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har bir fonema kar bolada max-sus usullar bilan qo'yiladi. Saqlangan analizatorlari ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, o'qituvchi oyna oldida to-vush talaffuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz qilishni bo-ladan so'raydi. Avvalambor oson talaffuz etiluvchi tovushlar «p», «b», «m» qo'yiladi, so'ng bo'g'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi. Kar bolada og'zaki nutqni shakllantirishda ko'ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordami bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o'z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so'ng to'g'rilaydi. Kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so'ng ko'ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artiku-latsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo'lsa kinestik sezgilar shunchalik differensiyalashgan bo'ladi. Bu sezgi turi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o'rin hisoblanadi. Shunday qilib, kar bo-lada og'zaki nutqni shakllantirish faqat o'qituvchi rahbarligida max-sus tashkil etilgan sharoitlarda amalga oshadi. Bu jarayon quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi: nutqiy nafasni shakllantirishni, modul-lashtirilgan ovoz qo'yish ustida ishlashni; talaffuzga o'rgatishni; labdan o'qishni; lug'at ishini; grammatik tizimni shakllantirishni o'z ichiga qamrab oladi.

Yozma nutq insonga egallangan tajribani belgilash va uni av-lodlarga berish imkonini beradi. Yozma nutq psixologik nuqtayi nazardan og'zaki nutqqa nisbatan murakkabroq va nutqning qi-yin shakli sanaladi. U mavhum bo'lib, bola uni sekin egallaydi. Odatda, bola bu nutq shakli bilan maktabda tanishadi. Kar bola uchun og'zaki nutqqa nisbatan yozma nutq yengilroq sanaladi. Uni idrok etish uchun eshitish kerak emas, ko'ruv idrok esa ularda sog'lom bo'ladi. Yozma nutq shakllanishida nafaqat eshituv anali-zatorlari, balki kar bolada sog'lom bo'lgan ko'ruv, harakat anali-zatorlari ham katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari bu nutqning shaklini kar bola ruhiy energiyani ishlatsa, og'zaki nutqni shakllantirishda ko'proq ruhiy energiya sarflanadi. Shu sababli eshi-tishda nuqsoni bo'lgan bolalarda yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallash bilan parallel yoki undan oldinroq davom etadi. Yozma nutqni qo'llash vositasi harf sanaladi. Yozma nutqni egal-lash savodga o'rgatish, harf yozish va tovush analiz va sintezini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Lekin yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi va rivojlanadi. Og'zaki nutqni, tilning tovush tarkibini egallagan bola nutqiy oqimni aniqlashi mumkin. Boshqa tomondan yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallashga olib keladi. Yozuv so'zning tovush tarkibini aniqlash, fikrlarning aniq ifodalanishiga olib keladi. Ta'lim amaliyotida yozuv va o'qishning turli buzilishlari uchraydi (xususan, yozma nutq va o'qish jara-yonlari buzilishlari, disgrafiya, disleksiya, agrofiya). Disgrafiya bola yozuvda ayrim harflarni tushirib qoldiradi yoki almashtiradi hamda yozuvda so'zlar o'rtasiga boshqa harflarni qo'shib yozadi. Disleksiyada harflarni ommalashtirib, tushirib qoldirib o'qiydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nutqni shakllantirish juda muhim va murakkab jarayon. Ular eshitmaydigan bo'lgani uchun oddiy bolalar kabi so'zlarni avtomatik o'rganib keta olmaydi. Shu sababli, maxsus usullar, vizual va taktil yondashuvlar kerak bo'ladi. Masalan, oyna qarshisida tovush chiqarishni o'rganish yoki imo-ishoralalar orqali tushuntirish katta ahamiyatga ega. Kar bolalar og'zaki nutqni eshituvchi bolalarga qaraganda ancha qiyin o'zlashtiradi, shuning uchun ularni erta yoshdan maxsus metodlar bilan o'rgatish lozim. Shu bilan birga, ularga ovoz chiqarish, nafas olish mashqlari qilish ham foydali bo'ladi. Asosiysi, sabr va to'g'ri yondashuv bilan ularning nutqiy rivojlanishiga yordam berish mumkin.

Zaif eshituvchilarda u yoki bu tovushning (juft tovushlarni) eshitish differensiyasini tarbiyalashning ko'pincha butunlay imkoni bo'lmaydi. Og'zaki nutqda tovush almashtirishlarni va yozuvda mos keluvchi harf almashuvlarini bartaraf etish, bunday hollarda, kompensator usullarni qo'llash hisobigagina erishish mumkin. Xususan og'zaki farqlanmaydigan s va sh tovushlarini bolaning tovush talaffuzida to'g'ri tarbiyalashda tovush artikulyatsiyasining ko'ruv tasavvuri va



artikulatsion organlar holatini sezish, ya'ni kinestetik sezgiga tayaniladi. Aynan shu tovush haqidagi ko'ruv kinestetik tasavvurlar, yozuvdagi mavjud harf almashtirishlarni bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan ishlarga ham asos bo'lishi mumkin. Biroq, kompensatsiyaning bunday yo'li bolaga tanish so'znigina to'g'ri yozishni ta'minlaydi, u holda notanish so'zlarni yozishda avvalgidek xatolar uchraydi. Bola tomonidan farqlanilmaydigan tovushlar ustiga-ustak harf belgisi bo'yicha ham o'xshash bo'lsa, yuqorida ta'riflangan kompensatsiya usullari deyarli natijasiz bo'ladi. Shunga o'xshash hollarda yozuvdagi xatolarni to'g'rilash uchun aylanma usullardan foydalaniladi. Nutqi rivojlanmagan zaif eshituvchi bolalar bilan barcha buzilgan nutq komponentlari tovush talaffuzi, leksik-grammatik tizim, yozuv, ekspressiv va impressiv nutq korreksiyasi ustida ishlash muhimdir. Kombinatsiyalashgan nuqsonlar sonining o'sishi, ularni differensial-tashxislashni mukammallashtirish va nafaqat o'qitishning o'ziga xos usullarini, balki logopedik ta'sirni qo'llashni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining shakllanishi tabiiy jarayon emas, balki maxsus pedagogik va psixologik yondashuvlarni talab qiladigan murakkab bosqichdir. Ular eshituvchi bolalar kabi so'zlarni bevosita idrok eta olmaydilar, shuning uchun imo-ishora, vizual va harakat analizatorlari orqali o'rganishlari lozim. Nutqni shakllantirishda artikulyatsion nafas olish, tovush chiqarish mashqlari, talaffuzni to'g'ri shakllantirish va individual yondashuv muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, kar bolalar bilan ishlashda sabr va to'g'ri metodika asosida ularning nutqiy rivojlanishiga ko'mak berish zarur. Chunki to'g'ri yondashuv orqali ularni nafaqat og'zaki nutqqa o'rgatish, balki jamiyatga to'liq moslashishiga ham sharoit yaratish mumkin. Mening fikrimcha, bu jarayonda doimiy mashqlar, maxsus pedagoglarning yordami va oilaning qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Agar bu omillarga e'tibor berilsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham jamiyatning faol a'zolariga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Logopediya (M. Y. Ayupova)
2. Maxsus pedagogika M.U. Xamidova
3. Maxsus psixologiya L.R. Mo'minova
4. Maxsus pedagogic / O'quv qo'llanma. M.U. Xamidova